

YANGI KORONAVIRUSLI INFEKSIYA - SARS-COV-2: HOMILADORLIK KECHISHIGA TA'SIRI

**Rajabova G., 407-guruh Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti Ilmiy rahbar:
Tillashayhova M. H.**

ToshPTI, kafedra Akusherlik va ginekologiya bolalar ginekologiyasi bilan

Mavzuning dolzarbligi: Koronavirusli infeksiya - tez rivojlanib boruvchi va qisqa vaqt ichida ko'plab odamlarni zararlagan yangi kasallik bo'lib, koronaviruslarning shu kungacha fanga noma'lum bo'lgan SARS-CoV-2 turi tomonidan qo'zg'atiladi. Ilk bor 2019-yilda Xitoyda aniqlangan bo'lib, hozirga qadar butun dunyoda 5 mln.dan ortiq tasdiqlangan kasallanish holatlari kuzatilgan. Koronavirusli infeksiyaning homiladorlik kechishiga ta'siri haqida tor doiradagi ma'lumotlar mavjud, lekin boshqa yuqori patogen koronaviruslar chaqiruvchi kasalliklar haqidagi ma'lumotlar asosida yangi kasallikning homiladorlik kechishiga ta'siri haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Tadqiqot maqsadi: yangi koronavirusli infeksiya - SARS-CoV-2 ning homiladorlik kechishiga ta'sirini o'rganish.

O'rganish usuli: tasdiqlangan tibbiy adabiyotlardagi maqolalar tahlili.

Natijalar: SARS-CoV-2 virusining yuqishi asosan havo-tomchi usulida amalga oshadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra virus yuqori kontagiozlikka ega. Virus yuqqanidan so'ng inkubatsion davr boshlanib, 1 kundan 14 kungacha, o'rtacha 5 kun davom etadi. Ayollarda homiladorlik davrida kuzatiladigan immunosupressiya va boshqa fiziologik o'zgarishlar barcha turdagi respirator kasalliklarga moyilligini oshirib yuboradi. 2002-2003 yillarda tarqalgan *atipik pnevmoniya* (og'ir o'tkir respirator sindrom) pandemiyasi ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, kasallik homilador ayollarda homilador bo'lmaganlarga nisbatan og'ir kechgan. Xususan, kasallik tasdiqlangan homilador ayollarning 50% intensiv terapiya yordamiga muhtoj bo'lgan, 33% esa o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi apparatiga ulangan. Lekin kasallikning vertikal usulda homilaga o'tishi tasdiqlanmagan.

COVID-19 pandemiyasi yetarlicha uzoq davom etayotganiga qaramay, homilador ayollarda kechishi haqidagi ma'lumotlar kam. Shuningdek, virusning vertikal usulda homilaga yuqishi haqida ham xech qanday ma'lumotlar yo'q. Hozirgi kunda kasallikning homilador ayollarda kechishi haqida 2 ta retrospektiv tadqiqot natijalari mavjud bo'lib, homilador ayollarda kasallikning kechishi homilador bo'lmagan ayollarda kechishi bilan bir xil. *The Lancet* tibbiyot jurnalida e'lon qilingan tekshiruv natijalariga ko'ra, kasallik tasdiqlangan ayollar qo'g'onoq suvida, kindik tizimchasi qonida va ona sutida virus izlari aniqlanmagan.

Xulosa: Ishonchli manbaalar ma'lumotlariga asoslanib shuni aytish mumkin - homilador ayollarda COVID-19 kasalligiga moyillik yuqori emas, virusning vertikal usulda homilaga yuqishi esa hali tasdiqlanmagan. Biroq, hozirda mavjud ma'lumotlar oxirgi xulosani chiqarish uchun yetarli emas va keyingi tadqiqotlar natijalarini kuzatib borish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Рузиева, Н. "Характеристика некоторых предикторов невынашивания беременности." Журнал вестник врача 1.2 (2019): 89-92.
2. Рузиева, Н. Х., and Д. Э. Назарова. "Изменения биофлоры гениталий у женщин репродуктивного возраста." Международная научно-практическая конференция. 2016.
3. Рузиева, Нодира Хакимовна, Х. Т. Шодиева, and Дилрабо Эркиновна Назарова. "ТЕЧЕНИЕ БЕРЕМЕННОСТИ, РОДОВИПЕРИНАТАЛЬНЫЕ ИСХОДЫ ПАЦИЕНТОК ПРИ ИНФЕКЦИИ МОЧЕВЫВОДЯЩЕГО ТРАКТА." НАУКА XXI ВЕКА: ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ (2015): 266.